
FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN
ILMIY JURNAL



1/2026

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH

scientific-practical and methodological journal



№ 1/2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov H.N.– psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Jalilov N.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH O‘QUV JARAYONI SIFATINI OSHIRISHNING ASOSIY OMILI

Jalilov Nodirjon Azamatovich
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
Harbiy ta’lim fakulteti boshlig‘ining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari

Annotatsiya. Ushbu maqolada tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik, metodik va psixologik jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda o‘quvchilarda mantiqiy tahlil qilish, muammolarni hal etish hamda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonlari yoritilgan. Maqolada interfaol ta’lim usullari, masala yechish, muhokama va bahs-munozara metodlarining tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi o‘rni batafsil ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik amaliyotda tanqidiy fikrlashni o‘quv jarayoniga integratsiyalash va talabalar kompetensiyasini oshirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari tanqidiy fikrlashni tizimli rivojlantirish o‘quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, pedagogika, interfaol ta’lim, mantiqiy tahlil, muammolarni hal qilish, mustaqil fikrlash, o‘quv jarayoni, bahs-munozara, kompetensiya, ta’lim metodikasi.

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические, методические и психологические аспекты развития критического мышления. Освещаются процессы формирования у обучающихся навыков логического анализа, решения проблем и самостоятельного принятия решений. В статье подробно рассматривается роль интерактивных методов обучения, решения задач, обсуждений и дискуссий в развитии критического мышления. Также научно обоснована значимость интеграции критического мышления в образовательный процесс и его влияние на повышение компетентности студентов в современной педагогической практике. Результаты исследования показывают, что системное развитие критического мышления способствует повышению качества и эффективности учебного процесса.

Ключевые слова: критическое мышление, педагогика, интерактивное обучение, логический анализ, решение проблем, самостоятельное мышление, образовательный процесс, дискуссия, компетенция, методика обучения.

Annotation. This article analyzes the pedagogical, methodological, and psychological aspects of developing critical thinking. The study highlights the processes of forming students’ skills in logical analysis, problem-solving, and

independent decision-making. The article examines in detail the role of interactive teaching methods, problem-solving activities, discussions, and debates in the development of critical thinking. Furthermore, the importance of integrating critical thinking into the educational process and its contribution to improving students' competencies in modern pedagogical practice is scientifically substantiated. The research findings demonstrate that the systematic development of critical thinking contributes to improving the quality and effectiveness of the educational process.

Keywords: critical thinking, pedagogy, interactive learning, logical analysis, problem-solving, independent thinking, educational process, discussion, competence, teaching methodology.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda inson fikrlash masalasi o‘z dolzarbligi jihatidan ijtimoiy munosabatlarning keskinlashuvi va axborot oqimining tobora ortib borishi natijasida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yosh avlodning har tomonlama barkamol shaxs bo‘lib yetishi masalasi pedagogikaning asosiy maqsadlaridan biri ekanligi, bugungi kun shaxsida ijtimoiy munosabatlarga tez va aniq javob beruvchi insonlar dunyoqarashini shakllantirishni taqozo etadi. Bu o‘rinda inson fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, iqtidorini yuzaga chiqarishda fikrlash turlari va yo‘nalishlari ichida eng zarurlaridan biri sifatida tanqidiy fikrlashni keltirish mumkin.

Ushbu o‘rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning: “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” [1], degan fikrlari asnosida bo‘lajak kadrlarni tayyorlashda bugungi kun ta’lim tizimida tanqidiy fikrlashning ahamiyati yuqori ekanligini keltirib o‘tish lozim.

“Tanqidiy fikrlash - fikrlashning alohida turi bo‘lib, faktlarni tahlil qilish orqali xulosalar hosil qiladi” [2].

“Tanqidiy fikrlash - muhokama qilinayotgan masala bo‘yicha o‘z pozitsiyasini egallash va uni asoslash qobiliyatini, suhbatdoshni tinglash, dalillarni sinchkovlik bilan ko‘rib chiqish va ularning mantig‘ini tahlil qilish qobiliyatini ta’minlaydigan fikrlash; nafaqat axborotni o‘zlashtirish, balki uni tanqidiy baholash, tushunish va qabul qilish qobiliyatidir” [3].

Tanqidiy fikrlash - bu qo‘llab-quvvatlash nuqtasi, tabiiy g‘oyalar va ma’lumotlar bilan o‘zaro aloqa qilish usulidir. Biz ma’lumotni tanlash muammosi bilan to‘qnash kelamiz [4].

Psixologiya “fikrlash”ni psixik jarayon sifatida o‘rgansa, pedagogika shaxsning idrok etish, o‘rganish va uning shakllanishiga bevosita e’tibor qaratish qobiliyatini o‘rganadi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Tafakkurning shakllanishi va rivojlanishiga oid pedagogik tadqiqotlar tahlili (uning asosi Friedrich Adolph Diesterweg, Johann Heinrich Pestalozzi, Jean-Jacques Rousseau tomonidan ishlab chiqilgan, keyinchalik muammoli ta’lim nazariyasi orqali yanada rivojlantirilgan) yechim usuli sifatida o‘rganilgan, ishlab chiqilgan yo‘l va vositalardir [5].

“Tanqidiy fikrlash - bu axborotni tahlil qilish, baholash va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatidir. Tanqidiy fikrlash nafaqat ilmiy va akademik yutuqlar uchun, balki kundalik hayotda ham to‘g‘ri qarorlar qabul qilish va muammolarni samarali hal qilish uchun zarurdir. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun ta’lim jarayonida maxsus pedagogik sharoitlar yaratish zarur” [6].

Tanqidiy fikrlash samarali muloqot muhitini yaratishning va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini egallashning yo‘li sifatida, shuningdek, tabiatimizga xos egosentrizm va sotsiotsentrizmni yengib o‘tishni talab qiladi.

“Tanqidiy fikrlash” tushunchasi XX asr o‘rtalarida pedagogika faniga kirib kelgan. Birinchilardan bo‘lib tanqidiy fikrlash atamasi Karl Popper tomonidan ishlatilgan. Unga ko‘ra, har bir tirik organizm muammolarni “hal qiluvchi” vazifasini bajaradi. Atrofdagi ma’lumotlar dunyosi tirik organizmning ma’nosini tasdiqlash yoki rad etish sifatida qaraladi va bu hodisani oldindan belgilaydi. Bunday vaziyatda tanqidiy fikrlash haqiqatni izlash va xatoni bartaraf etish usuli sifatida ishlaydi.

Tanqidiy fikrlash masalasi bo‘yicha ish olib borgan xorijiy mutaxassislardan Edward de Bono, J. Daniya, Matthew Lipman, Diane Halpern, D. Klouz va A.E. Petrovlarning so‘zlariga ko‘ra, tanqidiy fikrlash refleksiv xususiyatga ega bo‘lib, bunda inson o‘z tafakkurini va uning to‘g‘riligini o‘rganadi [2].

Tanqidiy fikrlashning eng to‘liq tavsifini taniqli monografiya muallifi Diane Halpern bergan, ya’ni unga ko‘ra: “Tanqidiy fikrlash - bu kerakli yakuniy natijaga erishish ehtimolini oshiradigan kognitiv texnikadan foydalanishdir”. Ushbu ta’rifda tanqidiy fikrlash fikrlashni nazorat qilish, asoslash va maqsadga muvofiqligi bilan ajralib turadigan jarayon sifatida hamda muammolarni hal qilish, xulosalar chiqarish, ehtimoliy baholash va qaror qabul qilishda qo‘llaniladigan fikrlash turi sifatida qaraladi. Shu bilan birga, bunda fikrlovchi muayyan vaziyat va hal qilinadigan vazifa turi uchun asosli hamda samarali bo‘lgan ko‘nikmalardan foydalanadi [3].

Tanqidiy fikrlashning pedagogik aspektlari, ya’ni kritik fikrlash metodlari vositasida o‘rganilishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu shaxsning analitik, tahliliy va taassurotli fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Shaxsning o‘z fikrlarini ifodalashi, yechim uchun savollar bilan murojaat qilishi: tanqidiy fikrlash shaxsga o‘z fikrlarini ongli ravishda ifodalash va ushbu muammo yuzaga kelgan jarayonda yechim uchun muammoli savollar berishni rag‘batlantiradi.

Fikrlarni dalillash: tanqidiy fikrlash shaxsda berilgan savollarga javob sifatida asosli dalillarni keltirish asnosida muammoni hal qilishga o‘rgatadi.

O‘rganishlar natijasida shuni aniqlash mumkinki, tanqidiy fikrlash aniq va asoslangan qarorlar qabul qilishda o‘z-o‘zini taftish qilishni nazarda tutadi. Tanqidiy fikrlash jarayonida fikrlar dalillanishi, muammo turli tomonlardan kritik jihatdan ko‘rib chiqilishi zarur.

Tanqidiy fikrlash tahlil asosida nazorat qilish, mustaqillikni asoslash, dalillar keltirish, dalillarni mantiqiy ko‘rib chiqish va maqsadga yo‘naltirilganlik bilan tavsiflanadi. Tanqidiy fikrlash ko‘pincha mavjud vaziyat yoki holatni baholash bilan bog‘liq bo‘lsa-da, uning ijobiy tomonlarini ko‘rib chiqish ham asoslidir [4].

Mazkur ishimiz doirasida biz tanqidiy fikrlashning tahliliy tadqiqot, asosli munozara, tafakkurli tahlil, fikr-mulohaza yuritish va baholash kabi ijobiy jihatlarini keltirib o‘tdik.

Shaxsning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning muhim jihatlarini ko‘rib chiqishda tanqidiy fikrlash va an’anaviy fikrlash o‘rtasidagi farqlar aniqlanadi:

Maqsad bosqichi: Tanqidiy fikrlashda, an’anaviy fikrlashdan farqli ravishda, axborotni tahlil qilish va baholash chuqur ko‘rib chiqiladi.

Savol bosqichi: Tanqidiy fikrlash, shaxsiy taxminlar va e’tiqodlarga tayanishdan farqli ravishda, taxmin va dalillarni so‘roq qilishni nazarda tutadi.

Dalil bosqichi: An’anaviy fikrlashda dalillar umumiy jihatdan ko‘rib chiqilsa, tanqidiy fikrlashda dalillar mulohaza va ma’lumotlarga tayangan holda chuqur tahlil qilinadi.

Aqliy tayanish bosqichi: Tanqidiy fikrlashda turli nuqtai nazarlarni hisobga olish va yangi yechim g‘oyalarini ko‘rib chiqish muhim hisoblanadi.

G‘oyalarni qabul qilish bosqichi: Ma’lumotlarni so‘roq qilish, dalillarni qayta ko‘rib chiqish va ishonchli manbalarni keltirish nazarda tutiladi.

Mulohaza bosqichi: Mavjud holatni tahliliy jihatdan asoslash bosqichi hisoblanadi.

Yuqoridagilarga asoslanib, tanqidiy fikrlashning elementlarini quyidagicha aniqlashtirish maqsadga muvofiq: tanqidiy fikrlash shaxsning mustaqil, ijodiy-tahliliy fikrlashidir; axborot manbalari tanqidiy fikrlashning negizi bo‘lib xizmat qiladi; tanqidiy fikrlash hal qilinishi kerak bo‘lgan muammoni yuzaga chiqarish va jarayonni shakllantirishdan boshlanadi; tanqidiy fikrlash ishonchli dalillarni keltirishni o‘z ichiga oladi; tanqidiy fikrlash fikrlarni ijtimoiy jihatlarni ham inobatga olgan holda ko‘rib chiqishni qamrab oladi [5].

TAHLIL VA NATIJALAR

Bizning o‘rganishlarimiz natijasida tanqidiy fikrlashni uch bosqichga bo‘lish mumkin: motivatsiya (harakatga keltiruvchi kuch), tushunish (fikrlarni ongli ravishda ko‘rib chiqish va anglash) hamda fikrlash (muhokama qilish va mulohaza yuritish).

Motivatsiya bosqichi tanqidiy fikrlashning ilk boshlanish bosqichi bo‘lib, unda shaxsda qiziqish uyg‘onadi, savollar tug‘iladi va jarayonni baholash sabablari shakllanadi.

Nihoyat, fikrlash bosqichi yuqori bosqich hisoblanib, bunda shaxs o‘z bilimlarini umumlashtirish, ularni mavjud bilimlar bilan solishtirish, o‘z savollariga javoblarni baholash va zarur bo‘lganda yangi savollarni shakllantirishga undaladi. Shuningdek, olingan ma’lumotlardan foydalanish, muhokama qilish va himoya qilish kabi muammoli vaziyatlarda bilimlarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar beriladi [6].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, tanqidiy fikrlash shaxsning bilim olish jarayonini asosli ravishda jadallashtirishga zamin yaratadi. Tanqidiy fikrlashning pedagogik aspektlarini tahlil qilish shaxsga turli xil imkoniyatlarni taqdim etadi, jumladan: ongli fikrlash jarayonini tezlashtirish; aniq maqsadlarni belgilash va ularga erishish yo‘llarini mustaqil ravishda izlash hamda tanlash qobiliyatini rivojlantirish; mavjud muammoli holatlarda mustaqil qaror qabul qilish; turli holatlarda hamkorlik ko‘nikmalarini va jamoalarda samarali ishlash qobiliyatini rivojlantirish; kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish va izohlash orqali mustaqil fikrni shakllantirish qobiliyatini tarbiyalash.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh.M.Mirziyoyev, “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-shtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga

mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bagishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza. 2017-yil 14-yanvar.

2. Edward M. Glaser. “Defining Critical Thinking”. The International Center for the Assessment of Higher Order Thinking (ICAT, US)/Critical Thinking Community. 2017-yil 22-mart.

3. Tursunova D.Z. “Tanqidiy fikrlashni shakllantirish texnologiyasi”. https://jdpu.uz/tanqidiy-fikrlashni-shakllantirish-texnologiyasi/

4. Орлова В.А. Психология в вопросах и ответах: учебное пособие / Б.А. Орексова. - М.: КНОРУС, 2009. - 200 с.

5. Akramova G.R., Akramova S.R. Talabalarni tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asosida ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashning pedagogikpsixologik shartlari // Psixologiya va ta’lim. (2021) 58(2): 4889-4902

6. Yusupaliyevna Y.I. (2024). Talabalarda tanqidiy fikrni rivojlantirishning pedagogik shartlari va ehtorati. Tadqiqot va ishlanmalar bo‘yicha xalqaro ko‘p tarmoqli jurnal, 11 (05).

MUNDARIJA

1.	ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ СОПРОВОЖДЕНИИ ПОДРОСТКОВ: ДИАГНОСТИЧЕСКИЙ И ПРОФИЛАКТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ Алимова Елена Геннадьевна	4
2.	G. BARDIYERNING TOLERANTLIK UCH KOMPLEKSLI MODELI TAVSIFI Bafayev Muxiddin Muxammadovich	14
3.	MAKTAB VA SINF MUHITINING KONTEKSTIDA O‘QUVCHILARNING ICHKI NAZORAT LOKUSINING RIVOJLANISH Celal Alğan	19
4.	OILADA OTA-ONA FARZAND MUNOSABATLARINI MILLIY TARBIY ASOSIDA TASHKIL QILISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI Jabborov Xazrat Xusenovich	27
5.	LIDERLIK PSIXOLOGIYA FANINING TADQIQOT PREDMETI SIFATIDA Jumanazarov Bekzod Begnazarovich	37
6.	SHAXS KOGNITIV ONTOGENEZI VA AVLODLAR NAZARIYASI L.S. Tursunov	45
7.	SOCIAL-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF DEVELOPING HR MANAGERS PROFESSIONAL COMPETENCIES IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION M.M. Abdukarimov	53
8.	YUQORI SINF O‘QUVCHILARIDA SUITSIDAL XAVF DARAJASINI PASAYTIRISHDA PSIXOPROFILAKTIK VA PSIXOKORREKSION METODLARNING EKSPERIMENTAL TAHLILI Qodirova Shoxidabonu Sobirjon qizi	57
9.	OILAVIY QADRIYATLAR VA PROSOTSIAL XULQ-ATVOR SHAKLLANISHI Rasulova Dildora Shuhratovna	65
10.	QARISH JARAYONINING PSIXOFIZIOLOGIK VA EPIGENETIK MEXANIZMLARI: NAZARIY TAHLIL VA AMALIY YONDASHUVLAR Umirov Shaxrizod O‘rol o‘g‘li	69
11.	PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE FORMATION OF NEW MORAL VALUES IN STUDENTS Umirzakova Nargiza Ismailovna	74
12.	ВОЗРАСТНЫЕ ОСОБЕННОСТИ КРИМЕНАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ Махмудова Д.А.	78

MUNDARIJA

13. KREDIT-MODUL TIZIMIDA TARBIYAVIY ISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI
Ibragimova Gulsanam Nematovna 82

14. TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH O‘QUV JARAYONI SIFATINI OSHIRISHNING ASOSIY OMILI
Jalilov Nodirjon Azamatovich 89

15. SUN’IY INTELLEKT VOSITALARIDAN TARBIYAVIY JARAYONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI
Karimova Barno Ergashevna 95

16. TA’LIM SIFATINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA KVALIMETRIK PARAMETRLARINI TAKOMILLASHTIRISH
Karimova M.M. 102

17. CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK FANI O‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENSIYASI VA METODIK MAHORATI
Uzoqov A.A. 110

18. INNOVATSION TARBIYA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TALABALARNING MA’NAVIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH
Xabibullayeva Shaxlo Ulmesovna 116

19. ARAB DAVLATLARI TARIXSHUNOSLIGINI O‘QITISHNING METODIK ASOSLARI
Axmedov Sanjar Bektemirovich 122

20. XIX ASR IKKINCHI YARMIDA ZARAFSHON OKRUGIDA SOLIQ MUNOSABATLARI VA ROSSIYA IMPERIYASI MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI
Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich 129

21. MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZMDA URUSH QATNASHCHILARINI E’ZOZLASH SIYOSATI
Ishchanova Oybika Farhod qizi 136

22. AFG‘ONISTONDA XX ASRNING 90-YILLARDA HOKIMYAT UCHUN KURASHDA ETNOSIYOSIY OMILNING ROLI
Sharipov Shohruz Faxriddin o‘g‘li 143

23. JADIDLAR QARASHLARIDA XOTIN-QIZLAR TA’LIMI MASALASI
Xabibullo Xoji Muxammadyusuf Alisher o‘g‘li 151

24. RAHBAR NUTQINING KOMMUNIKATIV VA NUTQIY TA’SIRCHANLIK MUAMMOLARI
Xalilova Ruxsora Raupovna 158

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA